

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**PARDAYEVA XURSHIDA OLIMJONOVNA**

**KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHINI  
TASHKIL ETISH METODIKASI (biologiya ta'lim yo'nalishi misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Pardayeva Xurshida Olimjonovna**

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish metodikasi  
(biologiya ta’lim yo‘nalishi misolida) ..... 3

**Пардаева Хуршида Олимжоновна**

Методика организации самостоятельной работы студентов при кредитно-  
модульной системы обучения (на примере направления биологии) ..... 25

**Pardaeva Khurshida Olimjonovna**

Methodology for organizing students' independent work in the credit module  
(on the example of biology education) ..... 49

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 53

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**PARDAYEVA XURSHIDA OLIMJONOVNA**

**KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHINI  
TASHKIL ETISH METODIKASI (biologiya ta'lim yo'nalishi misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida P2023.1.PhD/Ped4531 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (ozbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz)da va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna  
pedagogika fanlari doktori, professor  
Murodova Sayyora Sobirovna  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «26» aprel soat 10 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti asosiy binosi, 2-qavat, majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40, e-mail: devonxona@samdu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (24 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" aprel kuni tarqatildi.  
(2025-yil " " da "20" -raqamli reyestr bayonnomasi).



**T.F.Rajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**M.S.Kuziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash kotibi,  
b.f.f.d., dotsent

**Z.T.Rajamuradov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, b.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim sohasidagi islohotlar oliy ta'limning asosiy tarkibiy qismi sifatida talabalarning mustaqil ishlarini rivojlantirishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda. Yevropa davlatlaridagi Oliy ta'lim tizimlarida kredit o'tkazish va jamg'arish tizimining (ECTS) qabul qilinishi ta'lim tizimlarini zamonaviy jamiyat va mehnat bozorlari talablariga moslashtirish bo'yicha global majburiyatni aks ettiradi, ushbu kredit modul tizimida nazarda tutilgan mustaqil ish talabalarning mustaqil tadqiqotlar faoliyatida o'z qiziqishlarini chuqurroq o'rganish va kelajakda o'z iste'dodlarini qanday va qayerga yo'naltirishlari to'g'risida muhim qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Ushbu talabalarning mustaqil ishning o'qitish metodikalari, biologiya ta'limida dolzarb bo'lib, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligini oshirishda va mutaxassis kadrlarning kasbiy sifat va samaradorligini oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoda oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni tashkil etishni kuchaytirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar asosida biologiya ta'lim yo'nalishlari talabalarida kelajakda samarali mustaqil kasbiy faoliyat olib borishi, ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlash, talabalarning aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash hamda talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi oshirish borasida keng ko'lamlil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada interfaol va moslashuvchan o'quv muhitini rivojlantirish uchun raqamli vositalar, elektron o'quv platformalari va virtual laboratoriya simulyatsiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Individual o'quv dasturlari, fanlararo tadqiqot loyihalari va murabbiylik dasturlari talabalarning mustaqil ishga yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun ta'lim tizimlariga integratsiya qilinib, nazariy bilim kompetensiyalarini rivojlantiradi, balki talabalarga ushbu ko'nikmalarni real vaziyatlarda, xususan, amaliy tajribani talab qiladigan biologiya kabi sohalarda qo'llash imkonini beradi.

Respublikamizda kredit-modul tizimiga o'tish milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishda tabiiy fanlar yo'nalishida o'qitiladigan asosiy mutaxassislik fanlari bo'yicha mustaqil ishlar bajarilishining yangicha uslublarini ishlab chiqish, bugungi kunning dolzarb mustaqil ish mavzularini ishlab chiqish va mustaqil ishni o'zlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha muayan natijalarga erishilmoqda. "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib belgilab qo'yilgan kredit-modul tizimiga asoslangan talabalar mustaqil ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, mustaqil amalga oshiradigan ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimli ravishda tahlil etishga yo'naltirish, talabalarning mustaqil ish faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishga va ularni o'quv jarayonlariga joriy qilish muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637 sonli qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847 son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909 son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775 son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni kompetentli tayyorlash masalasi U.Begimkulov, R.Djurayev, U.Inoyatov, N.Muslimov, Sh.Sharipov, E.Yuzlikayeva, O.Qo‘ysinov, A.T.Nurmanov, M.Urazova, D.Ro‘ziyeva, Sh.Mardonov kabi ko‘plab pedagog olimlar tomonidan tadqiq etilgan, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modul texnologiyalarini takomillashtirish, kredit-modul tizimida talabalar ishini tashkil etish kabi masalalar G.M.Musaxanova, N.B.Muxiddinova, U.A.Maxmonov, O.D.Raximov, U.X.Otakulov, D.O.Raximova, Z.Mardanov, M.Mansurov, L.Zaripov, A.J.Janabergenov, J.D.Avazov, N.Mansurov, G.M.Musaxanova, M.N.Ibodova, M.G‘.Boratovalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy, metodik maqolalar, risolalar, tavsiyalar chop etilgan.

Oliy malakali mutaxassislar, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda mustaqil ishning ahamiyati va uni tashkil qilish muammolariga bag‘ishlab MDH mamlakatlarida Ya.I.Ustinova, V.S.Gershunskiy, A.V.Barannikov, V.I.Baydenko, T.A.Kulikova, A.L.Shishkina, R.I.Urazgaliyeva, T.K.Xusanova, Z.Dj.Sharifova, P.V.Suxanov kabi olimlar, M.V.Lobzarov, A.V.Kozlova, M.N.Gordeyev, A.A.Semenov kabi tadqiqotchilar ilmiy va amaliy izlanishlar olib borgan.

Mustaqil ish ko‘plab xorijiy pedagog-olimlar (Merriam S.B., Hayes C., Knowles M., Brockett R.G., Brookfield S., Candy P.C., Sargant N., Tough A.M. va boshqalar) tomonidan tadqiq qilingan.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etish masalalariga bag'ishlangan bir qator ilmiy, metodik maqolalar, risolalar, tavsiyalar chop etilgan, tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida bo'lajak biologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish maqsadida mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish muammolari tadqiq etilgan. Shuningdek, kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ishini tashkil etish, amalga oshirish mexanizmi va baholash kriteriyalari ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalar va tavsiyalar tayyorlangan.

Biroq pedagogika yo'nalishlarida talabalarining mustaqil ishlarini amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha katta hajmdagi tadqiqotlarga qaramasdan, bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kredit-modul tizimi doirasida mustaqil ishlarini tashkil etishning o'ziga xos metodikasi mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida o'rganilmagan. Adabiyotdagi bu bo'shliq kredit-modul tizimi sharoitida biologiya talabalarining mustaqil ishi bilan bog'liq o'ziga xos muammolar va strategiyalarni qo'shimcha tekshirish zarurligini ko'rsatadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universitetining №-1 "Rivojlanish strategiyasini amalga oshirish sharoitida oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini yaratish va joriy etish muammolari" mavzusidagi 2022-2026 yillar istiqbolli ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** oliy ta'limning kredit-modul tizimi doirasida biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishlarini samarali amalga oshirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari.**

kredit-modul ta'lim tizimida biologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ishlarni takomillashtirish uchun zamonaviy ta'lim amaliyotlari va ilg'or pedagogik yondashuvlarni o'zida mujassam etgan innovatsion uslubiy asosni ishlab chiqish;

biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishlariga rahbarlik qilish uchun dinamik, moslashuvchan SMART ta'lim maqsadlarini shakllantirish, talablar va tez o'zgaruvchan ta'lim muhitida talabalarining zarur kompetensiyalarga muvofiqligini takomillashtirish;

o'z-o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash va muammolar yechimini topish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun raqamli platformalar, hamkorlikdagi o'quv muhitlari va interfaol vositalarni o'z ichiga olgan biologiya bo'yicha mustaqil tadqiqotlarni osonlashtirish uchun modulli texnologiyaga asoslangan tizim loyihasini ishlab chiqish;

biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishda didaktik mazmunni takomillashtirish mexanizmi va tabiiy-ilmiy kompetensiyani shakllantirish modelini ishlab chiqish;

biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishlarni tashkil etish va baholash bo'yicha ilg'or jahon tajribasi va rivojlanayotgan tendensiyalarni inobatga olgan holda istiqbolli pedagogik model ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida kredit-modul tizimida biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishlarni SMART texnologiyalari asosida bajarish mexanizmi olingan.

**Tadqiqot predmetini** biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining kredit-modul tizimida mustaqil ishlar samaradorligini SMART texnologiyalari asosida amalga oshirishning strategiyalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, laboratoriya va dala amaliyotlari, diagnostika vositalari, so'rovlar, anketalar, testlar, pedagogik tajribalar hamda eksperimental natijalarning matematik va statistik tahlil usullaridan hamda talabalar faoliyatini kuzatish, so'rovnomalar, test vazifalariga mos keladigan pedagogik o'lchov va diagnostika usullari, pedagogik eksperiment, natijalarni statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** qo'yidagilardan iborat:

kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari biologiya ta'lim yo'nalishidagi zamonaviy tibbiy-ilmiy yondashuvning innovatsion mazmunini ta'limiy maqsadlarga ko'ra texnologik sharoitlar qamroviga ega SMART ta'lim sharoitlariga identiv moslashtirish asosida aniqlashtirilgan;

kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish samaradorligi berilgan topshiriqlarni bajarish jarayoni va natijadorligini monitoring qilishga qaratilgan ta'limiy-raqamli dasturlardan maqsadli segment asosida foydalanish hamda o'qituvchi va talabalar oldida sun'iy to'siqlarni bartaraf etishning zaruriy va ehtimoliy imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning mustaqil ishini tashkil etish metodikasi o'z-o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash va muammolar yechimini topish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan raqamli platformalar, hamkorlikdagi o'quv muhitlari va interfaol vositalarini modulli texnologiya mazmuniga maqsadli uyg'unlashtirish hamda ta'lim subyektlari ijodiy munosabatlaridagi qayta aloqaga kirishish mobilligini dinamik oshirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning mustaqil ishini tashkil etish modeli tabiiy-ilmiy savodxonlikni oshirish infratuzilmasini istiqbol (maqsadli) talabga ko'ra intensivlashtirish, didaktik topshiriqlarni bajarishda segmentlar uyg'unligiga ko'ra nostandart qarorlar qabul qilish, mehnat bozori talabiga ko'ra zaruriy nazariy bilimlarni egallashga frontal ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

“Odam anatomiyasi va fiziologiyasi”, “Odam biologiyasi” fanlaridan uslubiy qo'llanma, “Biologiyadan masala va mashqlar yechish”ga oid o'quv qo'llanma, videodarslar, videoqo'llanmalar tayyorlangan; “HEMIS” axborot platformasida “Fan resurslari” bo'limining “Fan topshiriqlari” menyusida mustaqil ishlar mavzularini va topshiriqlarini, baholash mezonlarini avtomatik aniqlash va obyektiv baholash, dasturiy vositalar asosida amalda nazorat qilish imkonini beruvchi mezonlar va ko'rsatkichlarni tanlash vositasi sifatida foydalanilgan hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

biologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ishlarni takomillashtirish uchun zamonaviy ta'lim amaliyotlari va ilg'or pedagogik yondashuvlar asosida “Odam anatomiyasi va fiziologiyasi” va “Odam biologiyasi” fanlaridan mustaqil ishlarni bajarish kredit-modul ta'lim tizimiga asosan o'quv-metodik ta'minot yaratilib, shularda keltirilganlar bo'yicha “Kredit-modul tizimi va mustaqil ish strategiyalari” nomli elektron o'quv qo'llanma (№DGU 37673) yaratilgan;



SMART ta'lim muhitida talabalar mustaqil ishini tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Kredit-ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotga yo'naltirilgan talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuvga asoslanib nazariy ma'lumotlar aniq manbalardan olinganligi, tadqiqot vazifalariga mos, o'zaro bir-birini to'ldiradigan adekvat tarzda innovatsion texnologiya va metodlar qo'llangani, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK tavsiya etgan jurnallar hamda xorijiy nashrlarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanmalar, taqdim etilgan tahlillar va eksperimental tekshiruvlarning samaradorlik darajasi matematik va statistik usullar yordamida aniqlanganligi, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashning nazariy-metodik ta'minotini ishlab chiqilganligi, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishni takomillashtirilganligi va samarador usullarning ilmiy asoslanganligi, SMART ta'lim vositalari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalashga qaratilgan o'quv mashg'ulotlari asosida ishlab chiqilgan metodika va nazariy asoslardan foydalanish imkoniyatlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, kredit-modul tizimi doirasida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning amaliy vositalari va strategiyalarini ishlab chiqishda SMART ta'lim maqsadlarini ishlab chiqish, talabalarni mustaqil tadqiqot faoliyatiga jalb qilish tizimlarini takomillashtirish va "HEMIS" tizimida mustaqil ish samaradorligini oshirish uslublarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kredit-modul tizimida biologiya ta'limi yo'nalishi talabalarining mustaqil ishini tashkil etish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari biologiya ta'lim yo'nalishidagi zamonaviy tibbiy-ilmiy yondashuvning innovatsion mazmunini ta'limiy maqsadlarga ko'ra texnologik sharoitlar qamroviga ega SMART ta'lim sharoitlariga idientiv moslashtirish asosida aniqlashtirish bo'yicha taklif Jahon banki Akademik innovatsiyalar fondining "Oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishda klasterli yondashuv: Guliston davlat universiteti va ishlab chiqarish integratsiyasi tizimida "o'quv-metodik kompleks" mavzusidagi ilmiy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Guliston davlat universiteti 2024-yil 3-fevraldagi 01-04-03/133-son ma'lumotnomasi) raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida innovatsion hamkorlikni rivojlantirish imkoniyati oshirilgan;

"Kredit-modul tizimi va mustaqil ta'lim strategiyalari" nomli monografiya mazmuniga singdirilgan kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish samaradorligi berilgan topshiriqlarni bajarish jarayoni va natijadorligini

monitoring qilishga qaratilgan ta'limiy-raqamli dasturlardan maqsadli segment asosida foydalanish hamda o'qituvchi va talabalar oldida sun'iy to'siqlarni bartaraf etishning zaruriy va ehtimoliy imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirishga oid taklif akademik mustaqillik huquqi berilgan Farg'ona davlat universiteti bo'yicha 01.05.2023-yildagi 176-sonli Qaror asosida amalda foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2023-yil 10-maydagi 04-2608-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarida integrativ yondoshuv asosida fanga oid ilmiy-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

talabalarining mustaqil ishini tashkil etish metodikasi o'z-o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash va muammolar yechimini topish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan raqamli platformalar, hamkorlikdagi o'quv muhitlari va interfaol vositalarini modulli texnologiya mazmuniga maqsadli uyg'unlashtirish hamda ta'lim subyektlari ijodiy munosabatlaridagi qayta aloqaga kirishish mobilligini dinamik oshirish asosida takomillashtirishga oid taklif akademik mustaqillik huquqi berilgan Urganch davlat universiteti bo'yicha 11.11.2024-yil dagi 429-sonli buyruq asosida chop etilgan "Biologiyadan masala va mashqlar yechish" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Urganch davlat universiteti 2023-yil 11-noyabrdagi 02-298/9-son ma'lumotnomasi). Natijada biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining o'zini-o'zi baholay olishi konikmalari shakillantirilib tabiiy-ilmiy kompetensiyasini takomillashtirish imkoniyati yaratilgan.

Talabalarining mustaqil ishini tashkil etish modeli tabiiy-ilmiy savodxonlikni oshirish infratuzilmasini istiqbolli (maqsadli) talabga ko'ra intensivlashtirish, didaktik topshiriqlarni bajarishda segmentlar uyg'unligiga ko'ra nostandart qarorlar qabul qilish, mehnat bozori talabiga ko'ra zaruriy nazariy bilimlarni egallashga frontal ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid taklif akademik mustaqillik huquqi berilgan Qoraqalpoq davlat universiteti bo'yicha 10.05.2024-yildagi № DGU 37673-sonli Qaror asosida chop etilgan "Kredit-modul tizimi va mustaqil ta'lim strategiyalari" nomli elektron o'quv qo'llanma (guvohnoma) mazmuniga singdirilgan (Qoraqalpoq davlat universiteti 2023-yil 06-sentyabrdagi 01-21-02/1484-son ma'lumotnomasi). Natijada biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini aniqlashning uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta elektron o'quv qo'llanma yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 126 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari”** deb nomlangan. **“O‘quv jarayonini kredit-modul ta’lim tizimi asosida tashkil etish bo‘yicha jahon tajribasi”** deb nomlangan birinchi faslda oliy ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan kredit-modul ta’lim tizimining qo‘llanilish tarixi, omillari, samaradorlik natijalari jahon tajribasi misolida ochib beriladi. Umumyevropa ta’lim tizimini yaratish tashabbusi 1998-yilda Germaniya, Italiya, Fransiya va Buyuk Britaniya ta’lim vazirlari tomonidan ilgari surilgan. Tegishli deklaratsiya (rasmiy nomi – “Yevropa oliy ta’lim hududi”) 1999-yil 19-iyun kuni Boloniya (Italiya) shahrida bo‘lib o‘tgan konferensiyada Yevropaning 29 ta davlati (shundan 16 tasi Yevropa Ittifoqi a‘zolari bo‘lgan) tomonidan imzolangan. Bu shahar Yevropadagi eng qadimgi 1088-yilda tashkil etilgan “Alma-mater” nomini olgan Boloniya universiteti joylashganligi sababli tanlangan.

2022-yil boshida 49 davlat Boloniya jarayonining rasman ishtirokchisi bo‘ldi, jumladan, Rossiya, shuningdek, sobiq sovetlarga mansub davlatlar – Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya, Qozog‘iston, Moldova, Ukraina va boshqalar Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (YeCTS)ga a‘zo bo‘lishdi. Bundan tashqari, Yevropa Komissiyasi jarayonning ishtirokchisi hisoblanadi. Umumiy boshqaruvni barcha ishtirokchi mamlakatlar vakillarini o‘z ichiga olgan nazorat guruhi amalga oshiradi. Rossiya Boloniya jarayoniga 2003-yil sentabrda qo‘shilgan. 2022-yil fevralida Ukrainada maxsus harbiy operatsiya boshlanishi Rossiya Federatsiyasi va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirdi. 2022-yil may oyida Rossiya Federatsiyasi Boloniya jarayonida ishtirok etmasligini rasman bildirdi.

Ushbu bobning **“Kredit-modul ta’lim tizimida talabalar mustaqil ishini amalga oshirishning huquqiy va ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi faslida o‘rganilayotgan muammo yuzasidan ilmiy-nazariy manbalar, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalariga kredit-modul ta’lim tizimini joriy etish bo‘yicha qabul qilingan Prezident qarorlari va farmonlari (O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637 sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son hamda “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi 2020-yil 31-dekabrda 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori) muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modul texnologiyalarini takomillashtirish, kredit-modul tizimida talabalar ishini tashkil etish kabi masalalar o‘zbek tadqiqotchilari Z.Mardanov, G.M.Musaxanova, M.N.Ibodova, M.G‘.Boratovalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan insonning mustaqil bilim olishi, takomilga erishishi masalalari g‘arb va rus olimlari A.Disterveg, T.Kampanella, Ya.A.Komenskiy, M.Montel, T.Mor, N.I.Novikov, I.G.Pestolossi, F.Rable, J.J.Russo, K.D.Ushinskiy kabi yetuk faylasuflar va pedagoglar tadqiqotlarida ham o‘rganilgan. Oliy o‘quv yurtlarida talabalarning mustaqil ishlariga S.I.Arxaangelskiy, M.G.Garunova, E.Ya.Golanda, S.I.Zinovev, B.G.Ioganzena, A.G.Moliboga, R.A.Nizomov, N.D.Nikandrov, P.I.Pidkasistiy, T.I.Grechuxina, A.V.Merenkov, S.V.Kunshikov, A.V.Usachev kabi olimlarning asarlarida e’tibor berilgan

Ushbu bobning “**Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish tamoyillari**” deb nomlangan uchinchi fasli biologiya ta’limi yo‘nalishi talabalarining mustaqil ishini amalga oshirish prinsiplari tahliliga bag‘ishlangan. O‘zbekiston oliy ta’lim sohasida ta’limning zamonaviy texnologiyalarini joriy yetish va shu orqali ta’lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishda kredit-modul ta’lim tizimi talabalarini bajarishda, imkoniyatlaridan foydalanishda, talabalarning ta’lim olishga kreativ yondashishida mustaqil ishni va uning negizida mustaqil ishlash, fikrlash, to‘g‘ri xulosaga kelish va samarali natijaga erishish har tomonlama yetuk, bilimdon, o‘zining mustaqil qarashlariga ega jahon andozalariga mos raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash zamonaviy kredit-modul ta’lim paradigmasiga asoslangan amalga oshirilayotgan talabalar mustaqil ishining asosiy prinsipidir.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ishini tashkil etish metodikasi**” deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli “**Kredit-modul tizimiga o‘tish sharoitida biologiya yo‘nalishi talabalarining mustaqil ish faoliyati individual ta’lim dasturlarini loyihalashtirish**” masalalariga bag‘ishlangan.

Oliy ta’lim tizimida mustaqil ish talabalarda tanlagan sohasidan kelib chiqib mustaqil o‘quv adabiyotlarni tanlash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, internet materiallarini tizimli-sinergetik tahlil qilish, manbalar bo‘yicha mustaqil ishlash, o‘quv jarayonida debatlarda o‘z fikrini asoslash va himoya qilish qobiliyatini yuzaga chiqarish, sohaga kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni o‘zlashtirish zamon talabi hisoblanadi.

2023-2024 o‘quv yili qishki va bahorgi semestrda Biologiya yo‘nalishi 1-4 kurslari bo‘yicha 30 nafardan 120 nafar talaba biologik ilmiy ijodga yo‘naltirish maqsadida ularning tafakkur tiplarini aniqlash uchun 2 turdan iborat (qishki va

bahorgi semestrlar yakunida) so'rovnomatashxis o'tkazildi. Birinchi bosqich talabalariga savollarga "ha" yoki "yo'q"; "bor" yoki "yo'q"; "bilaman" yoki "bilmayman" javoblarini berishlari taklif etildi. 2-3-bosqich talabalariga esa "ha" yoki "yo'q"; "bor" yoki "yo'q"; "bilaman" yoki "bilmayman" javoblariga izoh berishlari tushuntirildi.

Kredit-modul tizimiga o'tish sharoitida biologiya yo'nalishi talabalarining mustaqil ish faoliyati individual ta'lim dasturlarini loyihalashtirish ta'lim oluvchilarda fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va mas'uliyatni orttirsam, ta'lim beruvchilarda ta'lim berishning turli shakl, usul va uslublarini qo'llashni taqozo etadi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli **"Kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ishini tashkil etish metod, shakl va vositalari"** masalalari tadqiqiga bag'ishlangan. Biz kredit-modul tizimini ta'lim jarayoniga tatbiq etishimiz uchun, birinchi navbatda, o'qituvchi va talabaning mustaqil ishini amaliyotda amalga oshirish mexanizmini ko'rib chiqishimiz lozim. Buning birinchi talabi – soha bo'yicha bilim berish bilan birga talabada texnologik ko'nikmalarni, SMART savodxonlikni shakllantirishdir. Buning uchun o'qituvchi nafaqat fasilitator, shu bilan birga texnolog va innovatik bo'lishi lozim.

Shu ma'noda, tadqiqotchi Z.A.Mardonovning "Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modul texnologiyalarini takomillashtirishi", M.G'.Boratovanning "Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta'limdan foydalanish metodikasini takomillashtirish (Biologiya o'qitish metodikasi fani misolida) mavzusidagi tadqiqotlari tadqiq etilayotgan muammolar tadqiqiga bag'ishlangani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

SMART texnologiyalar bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Yaponiya va Rossiya davlatlarining oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda keng qo'llanilmoqda.

Talabada mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish SMART ta'limga xos SMART talaba mezonlariga mos keladi.

**Bobning uchinchi fasli "Kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ishini qiyosiy tahlili"**ga bag'ishlangan. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishini amalga oshirish strategiyalarini kredit-modulga asoslangan oliy ta'lim tizimi, avvalo, Yevropa mamlakatlarida, so'ng boshqa mamlakatlarda, shu jumladan, ba'zi MDH davlatlarida joriy etilganini inobatga olgan holda ulardagi jarayon bilan qiyosiy tahlil etildi. Mustaqil ish ko'plab xorijiy pedagog-olimlar ((Brockett R.G., Brookfield S., Candy P.C., Knowles M., Sargent N., Tough A.M. va boshqalar) tomonidan tadqiq qilingan.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi – ECTS kredit talabiga mos, ya'ni talabalarining bir yilda to'plashi lozim bo'lgan kredit miqdori 60 ni tashkil qiladi. Bir o'quv yili 2 semestrdan iborat bo'ladi deb olsak, talaba har semestrdan 30 kredit to'plab borishi lozim. Bakalavriat dasturi 3-4 yillik bo'lsa, talab bakalavriat darajasini qo'lga kiritish uchun jami 180- 240 kredit,

1-2 yillik magistratura dasturini egallashi uchun esa 60-120 kredit to'plashi majburiyat hisoblanadi.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Tajriba sinov ishlari va natijalari**” ikki fasldan iborat. Ushbu bobning birinchi fasli “**Tajriba-sinov ishlari dasturi, mazmuni, maqsad va vazifalari**”ning tahliliga bag'ishlangan.

Pedagogik tajriba-sinovning maqsadi – OTM talabalarida kredit-modul tizimi sharoitida biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishini tashkil etishni va ularning samarasini oshirishdan iborat bo'lib, 3 bosqichda amalga oshirildi:

### 3.1-jadval.

#### Pedagogik tajriba-sinov (2023-2024 o'quv yili).

tasdiqlovchi (2022-2023 o'quv yili);

aniqlovchi (2023-2024 o'quv yili)

Baholash tonshiridlari	OTM	Guruhlar	soni	Darajalari							
				Yuqori		O'rta		O'rtadan past		Past	
				Soni	Foizda	Soni	Foizda	Son i	Foizda	So ni	Foizda
Anketa so' rovlari	QDU	TG	52	2	3,8 %	5	9,6 %	16	30,8 %	29	55,8 %
		NG	53	1	1,9 %	5	9,3 %	17	32,1 %	29	54,7 %
	UrDU	TG	55	2	3,6 %	6	11,3 %	14	25,5 %	31	58,5 %
		NG	53	2	3,8 %	5	9,4 %	13	24,5 %	33	62,3 %
	FarDU	TG	52	2	3,8 %	5	9,8 %	15	29,4 %	29	56,9 %
		NG	51	2	3,9 %	5	9,8 %	15	29,4 %	29	56,9 %
	JAMI:	TG	159	6	3,8 %	16	10,2 %	45	28,7 %	91	57,3 %
		NG	157	5	3,2 %	15	9,6 %	45	28,7 %	92	58,6 %
Individual tonshiridlari	QDU	TG	52	2	3,8 %	5	9,4 %	16	30,2 %	30	56,6 %
		NG	53	2	3,8 %	5	9,6 %	16	30,8 %	29	55,8 %
	UrDU	TG	55	2	3,6 %	8	14,5 %	18	32,7 %	28	50,9 %
		NG	53	1	1,9 %	8	14,5 %	18	32,7 %	28	50,9 %
	FarDU	TG	52	1	1,9 %	5	9,4 %	16	30,2 %	30	56,6 %
		NG	51	1	2,0 %	5	9,4 %	16	30,2 %	30	56,6 %
	JAMI:	TG	159	5	3,1 %	16	10,1 %	50	31,4 %	88	55,3 %
		NG	157	4	2,5 %	15	9,6 %	53	33,8 %	85	54,1 %

Dastlabki va yakuniy nazoratlar uchun kredit-modul tizimi sharoitida biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishini tashkil etish va baholash quyidagi savollarga javoblari va topshiriqlarni bajarish natijalari asosida baholash darajalari aniqlandi:

### 3.2-jadval.

#### Tajriba-sinov ishlari tanlanmalari miqdori

№	OTM	TG	NG	Jami
1	QDU	52	53	105
2	UrDU	55	53	108
3	FarDU	52	51	103
4	JAMI	159	157	316

Kredit-modul tizimi sharoitida biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishini tashkil etish tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan dastur asosida tashkillashtirildi va bilimlarni o'zlashtirish hamda sifat ko'rsatkichlarining natijalarini tekshirish maqsadida dastlabki sinovlari o'tkazildi va ularning natijalari quyidagi jadvalda keltirildi:

**3.3-jadval.**

**Tekshirilishi lozim bo'lgan kredit-modul tizimi sharoitida biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishini baholash ballari**

Baholash darajalari	yuqori	o'rta	o'rtadan past	past
	5	4	3	2
<b>Umumiy ball</b>	<b>86-100 %</b>	<b>75-85 %</b>	<b>60-74 %</b>	<b>60 %dan kam</b>
<b>20</b>	<b>17-20</b>	<b>15-16</b>	<b>12--14</b>	<b>11 balgacha</b>


**3.4-jadval.**

**Dastlabki anketa so'rovi va topshiriqlari natijalari**

Baholash topshiriqlari	OTM	Guruhlar	Soni	Darajalar							
				Yuqori		O'rta		o'rtadan past		past	
				Soni	Foizda	Soni	Foizda	Soni	Foizda	Soni	Foizda
Anketa so'rovlar	QDU	TG	52	2	3,8 %	5	9,6 %	16	30,8 %	29	55,8 %
		NG	53	1	1,9 %	6	11,3 %	17	32,1 %	29	54,7 %
	UrDU	TG	55	2	3,6 %	5	9,1 %	14	25,5 %	34	61,8 %
		NG	53	2	3,8 %	5	9,4 %	13	24,5 %	33	62,3 %
	FarDU	TG	52	2	3,8 %	5	9,6 %	16	30,8 %	29	55,8 %
		NG	51	2	3,9 %	5	9,8 %	15	29,4 %	29	56,9 %
	JAMI	TG	159	6	3,8 %	15	9,4 %	46	28,9 %	92	57,9 %
		NG	157	5	3,2 %	16	10,2 %	45	28,7 %	91	58,0 %
Individual topshiriqlar	QDU	TG	52	2	3,8 %	6	11,5 %	17	32,7 %	27	51,9 %
		NG	53	2	3,8 %	5	9,4 %	19	35,8 %	27	50,9 %
	UrDU	TG	55	2	3,6 %	5	9,1 %	16	29,1 %	32	58,2 %
		NG	53	1	1,9 %	5	9,4 %	18	34,0 %	29	54,7 %
	FarDU	TG	52	1	1,9 %	5	9,6 %	17	32,7 %	29	55,8 %
		NG	51	1	2,0 %	5	9,8 %	16	31,4 %	29	56,9 %
	JAMI	TG	159	5	3,1 %	16	10,1 %	50	31,4 %	88	55,3 %
		NG	157	4	2,5 %	15	9,6 %	53	33,8 %	85	54,1 %

Dastlabki kredit-modul tizimi sharoitida biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish natijalari ko'ra tajriba va nazorat guruhlarida o'zlashtirishning yuqori darajasi 3,1 % va 2,5 %ni, o'rta darajasi 10,1 % va 9,6 %ni, o'rtadan past darajasi 31,4 % va 33,8 %ni, past darajasi esa 55,3 % va 54,1 %ni tashkil etib, talabalarining mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha anketa so'rovi natijalariga ko'ra sifat o'zlashtirish ko'rsatkichlari **tajriba guruhlarida 13,2 %ni, nazorat**

guruhlaridagi bu ko'rsatkich 12,1 %ni tashkil etgan bo'lsa, juda past o'zlashtiruvchilar (qoniqarsiz) tajriba guruhlarida 55,3 %, nazorat guruhlarida 54,1 %ni tashkil etilishi kuzatildi. Shunga ko'ra, tajriba-sinov ishlaridagi dastlabki individual topshiriqlarni bajarish natijalari talabalarning topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikmalari juda past ekanligi aniqlandi (3.1-rasm).



**3.1-rasm. Tajriba boshidagi OTMLar bo'yicha kredit-modul tizimi sharoitida biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishini tashkil etishdagi anketa so'rovlari va individual topshiriqlarni bajarganlik darajalari.**


**3.5-jadval.**

**Tajriba oxirida yakuniy anketa so'rovi va topshiriqlari natijalari**

Baholash topshiriqlari	OTM	Guruhlar	Soni	Darajalar							
				Yuqori		O'rta		o'rtadan past		past	
				Soni	Foizda	Soni	Foizda	Soni	Foizda	Soni	Foizda
Anketa so'rovlari	QDU	TG	52	7	13,5 %	18	34,6 %	27	51,9 %	0	0,0 %
		NG	53	3	5,7 %	9	17,0 %	33	62,3 %	8	15,1 %
	UrDU	TG	55	8	14,5 %	19	34,5 %	28	50,9 %	0	0,0 %
		NG	53	3	5,7 %	8	15,1 %	35	66,0 %	7	13,2 %
	FarDU	TG	52	7	13,5 %	20	38,5 %	25	48,1 %	0	0,0 %
		NG	51	3	5,9%	9	17,6 %	33	64,7 %	6	11,8 %
	JAMI	TG	159	22	13,8 %	57	35,8 %	80	50,3 %	0	0,0 %
		NG	157	9	5,7 %	26	16,6 %	101	64,3 %	21	13,4 %
Individual topshiriqlar	QDU	TG	52	8	15,4 %	19	36,5 %	25	48,1 %	0	0,0 %
		NG	53	3	5,7 %	9	17,0 %	36	67,9 %	5	9,4 %
	UrDU	TG	55	8	14,5 %	20	36,4 %	27	49,1 %	0	0,0 %
		NG	53	3	5,7 %	9	17,0 %	37	69,8 %	4	7,5 %
	FarDU	TG	52	9	17,3 %	21	40,4 %	22	42,3 %	0	0,0 %
		NG	51	4	7,8 %	9	17,6 %	35	68,6 %	3	5,9 %
	JAMI	TG	159	25	15,7 %	60	37,7 %	74	46,5 %	0	0,0%
		NG	157	10	6,4 %	27	17,2 %	108	68,8 %	12	7,6 %



Kredit-modul tizimi sharoitida biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha yakuniy individual topshiriqlarni bajarish natijalari ko'ra tajriba va nazorat guruhlarida o'zlashtirishning yuqori darajasi 15,7 % va 6,4 %ni tashkil etib, ular orasidagi farq tajriba guruhlarida 9,3 %ga o'sganligi, o'rta darajasi 37,7 % va 17,2 %ni tashkil etib ular orasidagi farq tajriba guruhlarida 20,5 %ga o'sganligi, o'rtadan past darajasi 46,5 % va 68,8 %ni ular orasidagi farq tajriba guruhlarida 24,3 %ga kamayganligini, past darajasi esa 0% va 7,6 %ni tashkil etib, ular orasidagi farq tajriba guruhlarida 7,6 %ga kamayganligi kuzatildi. Talabalarining mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish natijalariga ko'ra **sifat o'zlashtirish ko'rsatkichlari tajriba guruhlarida 53,4 %ni, nazorat guruhlaridagi bu ko'rsatkich 23,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, juda past o'zlashtiruvchilar(qoniqarsiz) tajriba guruhlarida qolmaganligi, nazorat guruhlarida 7,6 %ni tashkil etilishi kuzatildi.** Shunga ko'ra, tajriba-sinov ishlaridagi yakuniy individual topshiriqlarni bajarish natijalari talabalarining mustaqil ishlash bo'yicha topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikmalari tajriba guruhlarida yuqori ekanligi aniqlandi (3.2-rasm).



